

NORMUROD NORQOBILOVNING XARAKTER YARATISH SAN'ATI

*Turdiyeva Gulhayo Ismat qizi,
Samarqand shahri 35-maktab o'qituvchisi*

Realistik nasr rivoji XX asr boshlarida qalam tebratgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpion, Fitrat va boshqa ijodkorlarga borib taqaladi. Ijodkorlarimiz yangi davr adabiyotida Evropa adabiyoti mezonlari bilan o'lchaganda ham badiiy mukammal asarlar yaratdilar; realistik tasvir tamoyillariga xos xususiyatlar ular yozgan hikoyalar poetikasida ham namoyon bo'ldi.

Milliy nasrimiz tarixida haqqoniylig, hayotiylik va milliy o'ziga xoslik kabi fazilatlar yillar davomida ijodiy jarayondan oziqlanib, sezilarli darajada yuksaldi. 20-30-yillar o'zbek adabiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy adabiy tizimda realizm shakllanishi va taraqqiyoti izchil mantiqiy rivojlanish, adabiy-estetik tafakkurning murakkablashib borishi, insonni anglashga, his etishga bo'lgan intilish mahsulidir.

Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev qayd qilganidek: "Odam ichki dunyosi, ruhiyati, o'ylarining badiiy manzarasi va uning ham ijtimoiy, ham xususiy asoslari tasviri muhim hisoblanadi" [1, 70-bet]. Poetik mezonlar talabiga ko'ra inson ruhiyatidagi ziddiyatlarini tasvirlash, badiiy talqin etish zamonaviy nasrda etakchilik qila boshladi.

O'tgan asr adog'iga kelib, dunyo tinimsiz evrilishlar, yangilanishlarni boshidan kechirmoqda. Insoniyat ming yillar mobaynida ko'rmagan hodisalarini sanoqli kunlar ichida o'z boshidan o'tkazmoqda. Tabiiy ofatlar, ruhiy tanazzullar, tabiat va inson birligi jarayonida ojizligini anglatadigan hodisalar ro'y berdi. Ilohiyotga taalluqli so'z timsolidagi adabiyot abadiyat manzillari tomon intilar ekan, unda inson zoti ko'rib ilg'amagan, anglab ulgurmagan yana boshqa olamlar haqida ham so'z yuritilmoqda. Ana shu tushunchalar inson botiniy olamiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. XX asr o'zbek nasri ko'plab voqealarni, tasvir jarayonlarini, badiiy talqin tajribalarini o'tkazdi. Nasriy tafakkur hamon shakllanish, tajribalar qo'llash va o'sish jarayonida davom etayotganligini ijodkor insonning yangilik sari intilayotganidan dalolat beradi.

O'tgan asrning 80-yillariga kelib, badiiy adabiyotdagi poetik talqin xususiyati yanada teranlik kasb eta boshladi. To'g'ri, milliy adabiyotning 80-yillarida bo'y ko'rsatgan poetik xususiyatlarning ba'zi qirralari 70-yillardayoq ko'zga tashlanib, 80-yillarning birinchi choragida yanada barqarorlashgan edi. Davr adabiyoti bu zamonga kelib yangicha poetik talqin xususiyatlarini namoyon qildi. Ayni paytda, istiqlol davri adabiyoti, xususan, o'zbek nasri uzoq yillik milliy adabiyotning mantiqiy davomi sifatida ijodiy an'analardan oziqlanib yuksaldi. Jiddiy o'zgara boshlagan milliy-badiiy tafakkurdagi evrilishlarni yangilanayotgan adabiy-estetik tafakkurning hosilasi sifatida yuzaga chiqqanligini qayd etish lozim. Istiqlol davri adabiyoti yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam hodisalarini va odam ruhiyatini erkin anglash,

izohlash, badiiy talqin etish hamda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lgan adabiyot sifatida maydonga keldi. Adabiyotning hukmron mafkura tazyiqidan xalos bo‘lishi, olam hodisalari va odam ruhiyatiga mansub qirralarni yanada teranroq ifodalash imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, badiiy talqin tabiatida ham o‘zgarishlar yuz berdi.

Iste’dodli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov qayd qilib o‘tganidek: “Haqiqiy ijod erkinligi fikrni imkon boricha teran ifodalash erkinligidir, jamiyat rivojiga imkon boricha samaraliroq ta’sir ko‘rsatish erkinligidir” [2, 171-bet]. Shu nuqtai nazardan ham istiqlol yillariga kelib, millat kishisining ruhiyati, hissiyoti, ko‘ngli butun murakkabliklari bilan badiiy talqin etildi. Badiiy adabiyot qahramonlari o‘zining murakkab taqdiri, teran o‘y-mulohazalari, botiniy olamidagi kechinmalari bilan o‘ziga xos shaxs sifatida o‘zlikni anglash yo‘lini izlay boshladi. Shu jihatdan, o‘zbek adiblarining ijod mahsullarini, jumladan, iste’dodli yozuvchi Normurod Norqobilov asarlarini ham, undagi obrazlar olamini ham, soddagina his etish, anglash, izohlash, tushuntirish yoxud ilmiy qoliplarga solish mumkin bo‘lmay qoldi.

Bularni tasvir predmetining turfa xilligi, tasvirdagi uslubiy izlanishlarning chuqurlashuvi, kengayishi va jahon adabiyotidagi etakchi tamoyillarga ijodiy yondashish hodisasi sifatida qarash imkonni yaratilganligi bilan izohlash mumkin. Alovida ijodkorga taalluqli bo‘lgan badiiy mantiq va individual teran talqinlar murakkab kechinmalarni ifodalash jarayonida inson botinidagi ziddiyatlarni teranroq anglashga intilish mavjudligini ham alovida qayd etish zarur. So‘z san’atkorining ilk asarlariga nisbatan keyingi asarlarida rang-baranglikning quyuqlashishi, inson ruhiyati va xarakterini aks ettirishdagi dadil izlanishlar ko‘plab ijodkorlarning adabiy-ijodiy evolyusiyasida o‘z ifodasini topdi.

Darhaqiqat, Normurod Norqobilov o‘z uslubiga, betakror tiliga ega ekanligini namoyon eta olgan adiblardan sanaladi. Adabiyotshunos Bahodir Karim ta’kidlaganidek: “Asrlar bo‘yi amaliy tajribadan o‘tgan haqiqat shuki, san’atkor muayyan mavzuga qo‘l urib, voqelikni maromiga etkazib tasvirlasa, har qanday inson ko‘ngliga o‘tiradi, ko‘pchilikni o‘ylantiradi, qalbiga zavq, tafakkuriga yuk beradi” [3, 41-bet].

Haqiqatdan ham, ta’kidlanganidek, ijodkor yaratgan asarlarda hayotiylik, inson qalbidagi tuyg‘ular mujassamlashgan bo‘lsa, kitobxon qalbini larzaga solishi tabiiydir. Normurod Norqobilov yozgan asarlarining badiiy xususiyatlari haqida bir qator ijobiliy fikrlar alovida qayd etilgan. Badiiy talqinning o‘ziga xosligi, obrazlar tabiatining hayotiyligi yozuvchi ijodiga bo‘lgan qiziqishlar va ayrim tahliliy yondashuvlarning yuzaga chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

“Inson mo‘jiza, deb yozadi adabiyotshunos A.Rasulov, – uni o‘rganishgan, tadqiq etishmoqda, mudom talqin etishadi. Fanning qanday sohasi bo‘lmisin, alal oqibat, inson muammosiga kelib taqalaveradi” [4, 22-23-betlar]. Haqiqatdan ham

badiiy so‘z zahmatkashlari turfa xil vositalar asosida badiiy obraz yaratar ekan, uning zamirida inson qismati, shaxs ruhiy-ma’naviy olami mujassamlashgan bo‘ladi.

N.Norqobilovning bir qator hikoyalarida milliy xarakterlar talqini juda teran, badiiy mukammal ifodasini topganini kuzatish mumkin. “Etim qolgan gullar”, “Keksa tut”, “Quyosh tutilgan kun”, “Zangori ko‘l”, “Ro‘molcha”, “Chorraha” “Kurash” kabi hikoyalariga nazar tashlar ekanmiz, ulardagi inson xarakteri, ruhiyati o‘ziga xos tarzda ifodalangani yaqqol ko‘rinadi.

Adibning “Quyosh botmaydigan yurt” hikoyasida o‘zbek millati, o‘zbekona tafakkurga xos tasvir va obrazlarni kuzatamiz. Undagi Anvar va Mirvali obrazlari milliy qarashlar asosidagi shaxslar timsolini o‘zida mujassamlashtirgan: “Qishloq yigitlarining gurungi sodda, tilaklari ham shu xilda. Yarim oy burun davradagilarning biri qo‘chqorday o‘g‘il, shunchaki o‘g‘il emas, qo‘chqorday o‘g‘il ko‘rgan ekan, biri o‘sha o‘g‘lining devday bo‘lishi uchun, yana biri esa yaqinda uylangan yigitga bir hovli farzand ko‘rish uchun tilak bildirdi. SHu tariqa tun tugayozganda tarqalishdi” [5, 11-bet].

Bu kichik parchada bir davra qishloq odamlariga xos xarakterli xislatlar o‘z ifodasini topgan. Bular orasidagi Anvar shaharda o‘sigan, qishloq hayotini faqat tasavvur qilar, lekin jamlangan odamlarni kuzatar ekan, qalbida ularga nisbatan iliqlik uyg‘onadi. Shuning uchun Anvar qishloq hayotini suratlarda ifodalashga intilardi. Ana shunday bir jarayonda Berdivoy bilan tanishadi, uning qalbidagi iztiroblar katta odamlarnikidek alamli ekanligiga ishonch hosil qiladi. Anvar, umuman, qishloqning odamlari xarakter xususiyatlarinigina emas, oddiy qishloq bolalarining hayoti ham o‘zgacha ekanini yanada teranroq his qiladi. Berdivoy bilan suxbatlashar ekan, uning ichki dunyosi dardu alamlarni yanada teranroq anglashga intiladi. Bolakayning rasmini kuzatar ekan: “Keyin hafsalasiz daftar varaqlariga tushdi. Ammo varaqlagan sayin qiziqishi orta boshladı: sahifalarda suv bo‘yoqda durustgina rasmlar solingan edi. Mana birinchi rasm: yashil o‘tloq, ota-onasining qo‘llaridan tutgan bolakay shodon irg‘ishlaydi, tepada quyosh; ikkinchi rasm: bolakay quchog‘ini keng ochgancha otasiga peshvoz chiqmoqda, kulib darvozadan ona mo‘ralaydi, tepada quyosh; uchinchi surat: ota, ona, bolakay hovlida nonushta qilyapti, tepada quyosh – quyosh daraxtga bog‘lab qo‘yilgan edi! Boshqa rasmlar ham shu xilda, mazmun bitta – ota, ona, bolakay va quyosh” [5, 14-bet]. Qayd etilgan tasvirdan shu narsa ayonki, bolakay qalbida yorug‘ kunga ishonch hissi juda kuchli, uning zamirida ota va ona mehri mujassamlashgan. Chunki bolakay o‘ylarida, agar quyosh botmasa, onasi iztirob chekmaydi, sog‘ayib otasining kelishini kutadi. Bola qalbidagi iztiroblarda otaga, onaga bo‘lgan mehrning cheksizligi jamlab tasvirlanadi [6]. Bola chizgan rasmlarda ota sog‘inchi va uning qachondir mehr istab oilaga qaytishiga umid borligi ifodalangan [7]. Adib ilk hikoyalaridanoq xalqimizning oddiy hayat tarzi, urf-odatlari, an‘analarini badiiy talqin

etar ekan, insonning ichki kechinmalari-yu, botiniy olamidagi ziddiyatlariga e'tibor berib, uni badiylashtirishga intiladi [8].

N.Norqobilovning “Keksa tut” hikoyasida ham shunga yaqin muammolar qalamga olinadi; ma’nan qashshoq insonlar qiyofasini chizadi. Hikoyada hayot mazmunini teran anglamasdan hayotni anglamasligidan, umrning g‘animat ekanini to‘liq tasavvur eta olmasdan hayot kechirayotgan oddiy odamlar qiyofalari jonlantiriladi. Voqelik ramziy obrazga ko‘chirilib, hayot haqiqati bayon qilinadi. “Tepki zarbidan keksa tut daraxti qattiq seskandi. Bu xil zarbalarga ko‘nikkan bo‘lsada, bunisiga chidashi xiyla og‘ir kechdi. Keksa tut tanasi ich-ichidan zirillab ketdi. Shunga qaramay, sir bermaslikka tirishdi. Ichki ingrog‘ini ellar tortqilab o‘ynayotgan yaproqlari shovuri ostiga ko‘mib, qadini g‘oz tutishga urindi”.

Asardagi Ashur uzunning to‘ng‘ich o‘g‘li bilan Yovqoshning o‘rtasidagi ziddiyat ifodasi orqali bolalikning beg‘ubor onlarini besamar o‘tkazayotgan yoshlар obrazini mujassamlashtirgan. Keksa tut bilan Ashur uzun qiyoslanadi. U bir vaqtlar qo‘schnisining o‘g‘li Yovqash izidan quvar, ammo etolmasdan, horib ortda qolardi. Yillar shamoli unga ham o‘z hukmini o‘tkazdi. O‘g‘li otasini izlayotganligini sezib, suyilga suyanib asta o‘rnidan qo‘zg‘alib, Yovqashni izlagan kishi bo‘lib, dalaga razm soladi. Otaning qalbidan nelar kechayotganligini farzand anglamaydi. Yillar davomida bunday tala-to‘plarni ko‘rgan keksa tut, ba’zan o‘zi bilan o‘zi suhbatlashardi. Keksa tut – ramz. U jonlantirilgan va odamlar hayoliga aralashadi. Tut ziddiyatli hodisalar sababini jimgina izlaydi; kattalar orasidagi noma’qul illat qachon bolalar qalbida nish urishga ulgurganini o‘ylardi. Bu muammolarga javob topishga ulgurmasdan, keksa tut bolaning ikkinchi tepkisini ko‘tarmoqqa bardoshi etmasdan g‘ichirlagancha yiqiladi. Ashur uzunning cheksiz o‘y-kechinmalari va turmushidagi turli tashvishlari negizida milliy ruhni ko‘ramiz. Oila taqdiri bilan bog‘liq talqinlarda milliy kolorit ufurib turadi.

Adabiyotlar:

1. Йўлдошев К. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 70-бет.
2. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. 171-бет.
3. Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2016. 41-бет
4. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. 22-23-бетлар.
5. Норқобилов Н. Зангори кўл. Ҳикоялар. – Тошкент: Юлдузча, 1987.
6. Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. Monografiya. – Istanbul, KESIT nashriyoti, 2019.
7. Nasirov A. **Expression of spiritual experiences in art // International Jurnal on Integrated Education // Volume 3, Issue XI, November 2020. Impact Faktor 2020: 7.03. 181-182 str.**
8. Nasirov A. **Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov’s novels // Academicia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.**